Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321140

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

kerak. Xalqaro tajriba asosida sohaga ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning

yangi metodikasini tatbiq etish, professor-o‘qituvchilar ishtirokida sayyor o‘quv darslari

hamda seminarlar tashkil etish muhimligi qayd etildi.

Ilmiy-tadqiqot institutlarida ertapishar mahsulot turlari va hududlar iqlimiga mos chorva

zotlarini yaratish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘yicha ham ko‘rsatmalar berildi.

Umuman olganda, yangi strategiya qishloq xo‘jaligiga bozor mexanizmlarini joriy qilib,

ilmiy asoslangan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali oziq-ovqat xavfsizligini

ta'minlash, eksportni ko‘paytirish, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan mahsulotlar hajmini

bir necha barobarga oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining pq- 4575 sonli qarori, 28.01.2020y. "O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING 2020 — 2030-YILLARGA MO‘LJALLANGAN STRATEGIYASI://lex.uz/docs/-4714632

2. Gulizahro, T., Shohzodbek, S., Nodirjon, I., & Nasiba, R. (2022). The Role and Importance of Industry in the Fight against Poverty in Today's Economy. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 1(2), 5-10.

3. Turayeva G. et al. QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTIDA START UP TASHABBUSLAR HAMDA ISHLAB CHIQARUVCHI BIRLASHMALARINI QO‘LLAB QUVVATLASH //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2022. – Т. 1. – №. 27. – С. 86-90.

4. Qaxxorovna T. G. DON ISHLAB CHIQARUVCHI XALQARO TRENDLAR //Analysis of International Sciences. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 19-23.

Gulizahro T.,. QISHLOQ XO‘JALIGIDA ENERGIYA RESURSLARIDAN FOYDALANISH STATISTIKASI //Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 36-38.

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING AHAMIYATI

Mullabayev Murod Farxodjonovich
“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Boshqaruv kotibiyati Tahliliy ma’lumotlarni tayyorlash boshqarmasi Kotibiyat bo‘limi boshlig‘i
narzilmirvoshi@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratning ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi natijasida elektron tijoratning global va mahalliy iqtisodiyotga ko‘rsatadigan ta’siri yoritiladi. Tezisda elektron tijoratning ishbilarmonlik muhiti, tadbirkorlikni rivojlantirish

Published: 23.12.2024

Cite this article: Mullabayev Murod Farxodjonovich (2024). O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratning ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321140

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

va iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli platformalar orqali tadbirkorlar va iste’molchilar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, qulayliklar va innovatsion yechimlar ko‘rib chiqiladi. Tezis elektron tijoratning O‘zbekiston va boshqa davlatlar iqtisodiyotidagi o‘rni va istiqbollarini chuqurroq anglashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, rlektron tijorat, eaqamli platformalar, elektron savdo, elektron to‘lovlar, onlayn do‘konlar, elektron biznes, elektron xizmatlar, raqamli transformatsiya, raqamli marketing, onlayn iste’molchilar, raqamli xizmat ko‘rsatish.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot dunyo mamlakatlari uchun iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda elektron tijorat (e-tijorat) alohida o‘rin egallab, zamonaviy biznes yuritishning ajralmas qismiga aylandi. Elektron tijorat nafaqat savdo jarayonlarini soddalashtiradi, balki butun iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Elektron tijorat – bu tovarlar va xizmatlarni internet orqali sotish va sotib olish jarayoni bo‘lib, u zamonaviy texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. Ushbu faoliyat xaridorlar va sotuvchilar o‘rtasida muloqotni qulaylashtirish, vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi. Elektron tijoratning asosiy xususiyati uning onlayn platforma orqali amalga oshirilishidir, bu esa xaridorlarga uydan chiqmasdan turib xarid qilish imkonini yaratadi. To‘lov tizimlari elektron shaklda amalga oshiriladi, bu jarayonni tez va xavfsiz qiladi. Bundan tashqari, elektron tijorat global bozor imkoniyatlarini taqdim etadi, ya'ni sotuvchilar o‘z mahsulotlarini butun dunyo bo‘ylab xaridorlarga taklif qilishi mumkin. Bu soha ma’lumotlarning tez almashinuvi, qulay xizmatlar va marketing vositalarini o‘z ichiga oladi. Elektron tijoratning samaradorligi, avtomatlashtirilgan jarayonlari va moslashuvchanligi uni zamonaviy biznesning muhim qismiga aylantirgan. Elektron tijoratning hozirgi kunda juda ko‘plab xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat (1-jadval):


1-jadval

Elektron tijoratning asosiy xususiyatlari[157]

Jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari	Elektron tijorat korxonalarga xalqaro bozorga chiqish imkonini beradi. Internet tarmog‘i orqali har qanday mahsulot yoki xizmat dunyoning istalgan burchagiga yetib borishi mumkin.
24/7 faoliyati	Elektron tijorat platformalari doimiy faoliyat ko‘rsatadi, bu esa mijozlarga qulaylik yaratib, savdo hajmini oshiradi.
Tejamkorlik	Elektron tijorat an'anaviy savdoga nisbatan kamroq xarajat talab qiladi. Masalan, do‘konlarni ijaraga olish yoki ularga xizmat ko‘rsatish xarajatlari sezilarli darajada kamayadi.
Ma'lumotlarning tahlil imkoniyatlari	Elektron tijorat orqali to‘plangan ma'lumotlar yordamida mijozlarning xatti-harakatlarini o‘rganish va marketing strategiyalarini takomillashtirish mumkin.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan elektron tijoratning asosiy xususiyatlari mamlakatimizda ham keng qo‘llanilib kelmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda elektron tijorat pozitsiyalarini mustahkamlash davri bo‘lib qolmoqda. Savdo hajmining ortishi, yangi texnologiyalarning joriy etilishi va marketpleyslar o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi bu yildagi soha rivojini muhim bosqichga olib chiqdi. Oxirgi yillarda internet-do‘konlari foydalanuvchilarining iste’molchi sifatidagi xatti-harakatlari sezilarli darajada o‘zgarmoqda (1-rasm):

[157] Internetdagi manbalar va ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi



1-rasm. O‘zbekistonda elektron tijoratdan foydalanuvchilar miqdorining o‘zgarishi[158]

Yuqoridagi rasmda O‘zbekistonda elektron tijoratdan foydalanuvchilar sonining yillik o‘sishi haqida diagrammani ko‘rishimiz mumkin. Bunda 2019-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davr uchun foydalanuvchilar sonining o‘sish ko‘radigan bo‘lsak, electron tijoratdan foydalanuvchilar soni yildan yilga oshib bormoqda.

Hozirgi kudan O‘zbekistonda elektron tijorat sohasidagi muhim o‘zgarishlar quyidagi asosiy jihatlarni qamrab olishi mumkin:

1. **Onlayn savdo hajmining o‘sishi.** Taxminlarga ko‘ra, onlayn savdolarning o‘sishi mamlakatda elektron tijorat bozorining rivojlanishidagi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.
2. **Yangi tadbirkorlarning paydo bo‘lishi.** Bozorda yangi savdogarlarni ishga tushirish raqobat dinamikasini va bozor tuzilishini o‘zgartirishi mumkin.
3. **Moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish.** Moliyaviy xizmatlarni yaxshilash, jumladan, bo‘lib-bo‘lib to‘lash tizimini joriy etish va hamkorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va savdoni oshirishda asosiy jihat bo‘lishi mumkin.
4. **Mijozlarga individual yondashuv.** Mijozlarga individual yondashuvni kuchaytirish xizmat ko‘rsatish standartlarini o‘zgartirishi va iste’molchilarning qoniqish darajasini oshirishi, shuningdek, sodiqlikni kuchaytirishi mumkin.
5. **Texnologik innovatsiyalar.** Raqamli xizmatlar va takomillashtirilgan onlayn to‘lovlar kabi yangi texnologiyalarning joriy etilishi xaridlarni qulay va xavfsiz amalga oshirishda o‘ynashi mumkin.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirish raqamli iqtisodiyotda infrastrukturasi va mexanizimi oraqali amalga oshirish usuli eng dolzarb va kerakli deb, deb hisoblaymiz, ayniqsa, u bevosita ta'sir qilish imkonini beradi va katta maydonda potentsial mijozlar bilan vositachilarsiz kanal yaratadi. Elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirish zarurati sotish usuli va

[158] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy stat.uz saytidagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

iste'molchilar ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uchun mutlaqo yangi formatni talab qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat jamiyat va iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega. Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat nafaqat savdo-sotiq jarayonlarini osonlashtirish, balki butun iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. U savdo jarayonlarini modernizatsiya qilish, iste'molchilarga qulaylik yaratish va tadbirkorlikni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Mamlakatlarda elektron tijoratni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar iqtisodiy o‘sishning yangi manbalarini yaratadi va global bozor integratsiyasini kuchaytiradi. Shu sababli, raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratni qo‘llab-quvvatlash zamonaviy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish uchun texnologik infratuzilmani mustahkamlash, huquqiy bazani takomillashtirish va malakali kadrlarni tayyorlash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Elektron tijoratning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga va milliy farovonlikka erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

15. Akhmetova Z, Baimukhanbetova E, Belgozhakyzy M, Alikbaeva A, Tulebaeva N. (2020) “The development of e-commerce infrastructure in modern conditions”. E3S Web of Conferences 159
16. Baxtiyor Maxkamov, Gulnora Ismoilova, & Bobur Raximov. (2023). Elektron tijorat infratuzilmasi va uning geoiqtisodiy ahamiyati. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 974–983.
17. Ismoilova Gulnora Fayzullaevna (2023) Elektron pullar va ularning o‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri:nazariya va yondoshuv // SAI. №Special Issue 13. Ismoilova, G. (2023). Elektron pullar va ularning raqamli iqtisodiyotdagi o‘rni. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(8), 27–32.
18. Ismoilova, G., Makhkamov, B., & Makhmudov, D. (2022). Business in the development of ecommerce. In 2022 International Conference on Information Science and Communication Technology September (ICISCT) (pp. 1-7). IEEE Standard.
19. Maxkamov, Gulnora Ismoilova, & Bobur Raximov. (2023). Elektron tijorat infratuzilmasi va uning geoiqtisodiy ahamiyati. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 974–983.
20. http://www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
21. https://www.imv.uz – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti

http://www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti

ПЕРСПЕКТИВЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА И ЧЛЕНСТВА УЗБЕКИСТАНА В ЕВРАЗИЙСКОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ СОЮЗЕ

Шафкаров Бахром Худойбердиевич
Заведующий кафедрой к.э.н., доцент, Экономика НИУ ТИИИМСХ
Джурабоева Диёра Музаффар кизи
магистр, НИУ ТИИИМСХ

Аннотация. Как известно, укрепление торговых и инвестиционных связей между членами Евразийского союза, развитие инфраструктуры, открытие новых рынков, могут дать толчок экономическому росту Узбекистана. Присоединяясь к союзу, Узбекистан, думаем, получит возможности для повышения конкурентоспособности в международной торговле, привлечения новых инвестиций и развития транспортных сетей. Однако процесс интеграции также может иметь некоторые негативные последствия, такие как усиление конкуренции со стороны отечественных производителей и конкуренция со стороны импорта в некоторых отраслях. В политическом плане необходим осторожный подход к поддержанию нового баланса во внешней политике Узбекистана и обеспечению региональной безопасности. В данной статье проанализированы экономические выгоды, ожидаемые риски, современные решения и перспективные пути присоединения Узбекистана к ЕАЭС.

Ключевые слова. Евразийский экономический союз, инвестиции, интеграция, диверсификация, стратегические ресурсы, экономическая независимость, стратегическое сотрудничество, миграция, логистическая инфраструктура, транспортная инфраструктура.